



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 402 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyurayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	

“Mustaqil fikrlash”, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “fikrlash kompetensiyasi” tushunchalarining pedagogik mazmuni	196
Kadirova Zarina Ilhomovna	
Tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalarining qo'llanishi	202
Rashidova Nodira Xabibullayevna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyasini rivojlantirish jahon olimlari nigohida.....	205
Mamazoirova Jangil Xamdamovna	
Magistratura tadqiqot amaliyotining bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni	209
Parmanov Jamshid Tag'aymurotovich	
Umumta'lim maktablari matematika to'garagida sferaning elementlarini o'rganish metodikasi	214
Jumayev Erkin Ergashevich, Omonov G'olibjon Tolibovich, Shaxnoza Xolmurodova Zoir qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida o'quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
Norova Nargiza Xalmamat qizi	
Oliy o'quv yurtlarida amaliy mashg'ulotlar – bakalavr yo'nalishidagi matematiklarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi omil.....	224
Abduraxmonov Abdumo'min	
Bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasining samaradorligi	228
Baxronov Rustam Rajabovich	
O'smir o'quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish tarixi.....	231
Botirov Zoir Nuriddin o'g'li	
Husnixatga o'rgatish tamoyillari.....	235
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna	
O'smirlarda suitsidal xavf bilan bog'liq tajovuzkorlik va psixologik determinantlarning kompleks diagnostikasi.....	240
Nahalboyeva Nigora Turdi qizi	
Raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari	245
Sangirova Nilufar Sayfidinovna	
O'smirlar davrida psixologik o'zgarishlar: omillar, xususiyatlar va psixologik yondashuvlar	251
Usmonova Munira Sayfiddinovna	
Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalar samaradorligi	256
Axmedova Munavvar Numanjanovna	
Tarix darslarida wordmint: o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirishning innovatsion usuli	261
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitishning konseptual-metodologik muammolari	265
Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li	
Menejment ta'limida ekonometrik tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilishning didaktik modeli	269
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	
Zamonaviy psixologiya va pedagogikada shaxsga xos universal ta'limiy faoliyatlarining ahamiyati.....	273
Shomirzayeva Nargiza Sherali qizi	
Jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirishda raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	277
Axmedova Sarvinoz Azatovna	
Umumta'lim maktablari tarix darslarida immersiv texnologiyalarini qo'llash	282
Rasuljon Atamuratov	
Talaba-kurashchilarning mashg'ulot yuklamalarini individual me'yorlash va uning pedagogik asoslari	287
Davletova Ullijon Sapavoy qizi	



Talabalarida axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	290
Ergashev Bunyod Shokir o'g'li	
Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy deformatsiya (burnout)ni oldini olishning psixologik shart-sharoitlari	296
Mardiyeva Dilarom Sapparboyevna	
Turning Traditional Classrooms Upside Down: Main Principles of PBL (Project-Based Learning)	300
Hakimova Halimakhon Hamzayevna	
Ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda zamonaviy yondashuv	305
Norqulova M. B.	
Ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim muhitining pedagogik mohiyati va tarkibiy komponentlari	311
Nosirov Asliddin Sadriddinovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar targ'ibotiga innovatsion yondashuv	316
Sh. Sh. Abdurasulova	
Terminologik kompetensiya bo'lajak shifokor kasbiy kompetentligining komponenti sifatida	320
Namazova Munavvar Oltibekovna	
Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar (FSMU, BBB, Klaster) vositasida ta'lim samaradorligini oshirish...	323
Abduvahobova Feruzabonu Kozim qizi	
Pedagogical Strategies for Integrating the Life and Literary Heritage of Ibrayim Yusupov Into Modern Education	326
Atajanova Gulsara Baxit qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv motivatsiyasini shakllantirishda oila-maktab hamkorligining o'rni ..	329
Karimova Shoxsanam Islomxon qizi	
Using Model Essays to Develop IELTS Writing Task 2 Performance: An Evidence-Based Approach to Noticing, Analysis, Imitation and Independent Writing.....	333
Otakulova Dildora Hakimbek qizi	
Uzunlikka sakrovchi yengil atletikachilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	337
Ro'zimatova Shohista Boltaboy qizi	
Raqamli kommunikatsiya muhitida an'anaviy qadriyatlar transformatsiyasi: internet va ijtimoiy tarmoqlarning madaniy idrok hamda ijtimoiy me'yorlarga ta'siri	342
Shodiyev Jasur Xolmatjonovich	
Professional Competence of Specialists Working With Older Adults: Conceptual Requirements.....	349
Ikromova Sitara Akbarovna	
The Effect of Corpus-Based Learning on Psychology Students' Professional English Communication	353
Pulatova Durdona Ravshanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishga oid jahon tajribalari tahlili.....	357
Djabbarov Farrux Tirkashevich	
Talabalarda vaqtini idrok qilish va boshqarishga qaratilgan nazariy-metodologik konsepsiyalar hamda tamoyillar tahlili	361
Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li	
Tibbiy tayyorgarlik sifatini oshirish vositasi sifatida immersiv ta'lim muhitlari	367
Namazova Munavvar Oltibekovna	
Milliy kurash vositalari asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyasini shakllantirish modelini takomillashtirish	370
Jurayev Sayidmurat Safarovich	
"Uglevodlar" bo'limini o'qitishni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinflar o'quvchilari misolida).....	374
Rasulov Mirzobek Toxirovich	
"O'simliklar fiziologiyasi" fanining o'quv mazmunini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirish metodikasi.....	382
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	

Литературный текст как пространство мышления: авторская методика интерпретационного обучения студентов в вузе	389
Жабборова Гулчехра Жобировна	
Развитие исследовательской компетентности будущих учителей истории посредством работы с художественно-историческими источниками	393
Равшан Хакимов	
Oilaviy muhit va ota-ona munosabatlarining o'smir qizlar yolg'izligiga ta'siri.....	397
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	



OILAVIY MUHIT VA OTA-ONA MUNOSABATLARINING O'SMIR QIZLAR YOLG'IZLIGIGA TA'SIRI

Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
psixologiya yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaviy muhit va ota-ona munosabatlarning o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining shakllanishiga ta'siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi oilaviy omillar, xususan, bog'lanish uslubi, ota-ona nazorati, emotsional ilqlik va oilaviy tarbiya uslublari bilan o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining namoyon bo'lishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tizimlashtirishdan iborat. Tahlil natijalari xavfsiz bog'lanish, ota-onalarning emotsional qo'llab-quvvatlashi hamda oiladagi ochiq va samimiy muloqot o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining namoyon bo'lish darajasini pasaytiruvchi muhim himoya omillari ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, ishonchsiz bog'lanish shakllari, emotsional yaqinlikning yetishmasligi va haddan tashqari qattiqqo'l tarbiya uslubi yolg'izlik tuyg'usining kuchayish xavfini oshiruvchi psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, o'smir qizlar, yolg'izlik tuyg'usi, oilaviy muhit, ota-ona munosabatlari, bog'lanish nazariyasi, emotsional qo'llab-quvvatlash, tarbiya uslubi.

Abstract: This article analyzes, from a psychological perspective, the influence of the family environment and parent-child relationships on the development of feelings of loneliness among adolescent girls. The study aims to systematize, based on contemporary research, the relationships between family factors, particularly attachment style, parental control, emotional warmth, and parenting styles, and the manifestation of loneliness among adolescent girls. The findings indicate that secure attachment, parental emotional support, and open and trusting communication within the family serve as important protective factors that contribute to lower levels of loneliness among adolescent girls. In contrast, insecure attachment patterns, insufficient emotional closeness, and excessively strict parenting styles emerge as psychological factors associated with an increased risk of loneliness.

Key words: adolescence, adolescent girls, loneliness, family environment, parent-child relationships, attachment theory, emotional support, parenting style.

Аннотация: В статье с психологической точки зрения анализируется влияние семейной среды и детско-родительских отношений на формирование чувства одиночества у девочек-подростков. Цель исследования заключается в систематизации на основе современных научных исследований взаимосвязей между семейными факторами, в частности стилем привязанности, родительским контролем, эмоциональной теплотой и стилями семейного воспитания, и проявлением чувства одиночества у девочек-подростков. Результаты анализа показывают, что надёжная привязанность, эмоциональная поддержка со стороны родителей, а также открытое и доверительное общение в семье выступают важными защитными факторами, способствующими снижению уровня одиночества у девочек-подростков. Напротив, ненадёжные типы привязанности, недостаток эмоциональной близости и чрезмерно жёсткий стиль воспитания являются психологическими факторами, повышающими риск усиления чувства одиночества.

Ключевые слова: подростковый возраст, девочки-подростки, чувство одиночества, семейная среда, детско-родительские отношения, теория привязанности, эмоциональная поддержка, стиль воспитания.

KIRISH

O'smirlik davri shaxs rivojlanishida alohida o'rin tutadi, chunki bu davrda ijtimoiy munosabatlar tizimi tubdan qayta quriladi va o'smir o'z "Men"ligini qidirish jarayonida ko'plab ichki qarama-qarshiliklarni boshdan kechiradi ^[1]. Ayniqsa qiz bolalarda bu davr emotsional sezuvchanlikning ortishi, o'z-o'zini baholashning beqarorlashishi va ijtimoiy aloqalarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan tavsiflanadi ^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhit - ota-onaning bolaga munosabati, ularning emosional iliqligi, nazorat darajasi va bog'lanish sifati - o'smirlarda yolg'izlik tuyg'usining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir^[3].

Bog'lanish nazariyasiga ko'ra, bolalikda shakllangan ota-ona bilan bog'lanish tajribasi shaxsning o'zi va boshqalar haqidagi ichki ishchi modellariga aylanadi hamda kelgusida uning barcha ijtimoiy munosabatlariga, jumladan yolg'izlikka moyillikka ta'sir ko'rsatadi^[2]. Bu nazariyaning eksperimental asosi "Begona vaziyat" metodikasi orqali sinab ko'rilgan bo'lib, bolaning ota-ona bilan ajralish va qayta birlashish vaziyatlaridagi xatti-harakati asosida xavfsiz, xavotirli va qochuvchi bog'lanish turlari ajratilgan^[5].

Yolg'izlik tuyg'usi R. Vayss tomonidan ikki turga bo'lib o'rganilgan: emotsional yolg'izlik (yaqin, ishonchli munosabat yo'qligidan kelib chiqadigan) va ijtimoiy yolg'izlik (kengroq ijtimoiy tarmoq yetishmasligidan kelib chiqadigan)^[6]. O'smir qizlarda, ayniqsa, emotsional yolg'izlik ko'pincha oiladagi yaqin, ishonchli munosabatning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, bu holat uzoq muddatda psixotravmatik oqibatlariga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda olib borilgan xalqaro tahliliy sharhlarda o'smirlik davridagi yolg'izlikning keng tarqalganligi va uning turli madaniy-ijtimoiy kontekstlarda namoyon bo'lish xususiyatlari ta'kidlanadi, bu esa muammoning global ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi^[7].

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, oilaviy omillarning o'smir qizlar yolg'izligiga ta'sir mexanizmlarini ilmiy asoslangan tarzda tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi - mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida oilaviy muhit komponentlari (bog'lanish uslubi, tarbiya turi, ota-ona nazorati va emotsional qo'llab-quvvatlash) bilan o'smir qizlar yolg'izligi o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni aniqlash va sistemalashtirishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologik jihatdan nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

- 1) **ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodi** - 2015–2025-yillar oralig'ida chop etilgan xalqaro va mahalliy ilmiy nashrlar (Frontiers in Psychology, Journal of Family Psychology, PLoS ONE, Journal of Affective Disorders va boshqalar) hamda bog'lanish nazariyasi va yolg'izlik nazariyasiga oid klassik manbalar tanlab olindi;
- 2) **qiyosiy-nazariy tahlil metodi** - turli mualliflarning bog'lanish uslublari, tarbiya turlari va yolg'izlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha qarashlarini o'zaro solishtirish;
- 3) **sistemalashtirish va umumlashtirish metodi** - mavjud empirik ma'lumotlarni oilaviy omillarning yolg'izlikka ta'sir mexanizmi modeliga birlashtirish.

Manbalar tanlashda asosiy mezon sifatida quyidagilar hisobga olindi: tadqiqot o'smirlik yoshidagi respondentlarni qamrab olishi, oilaviy/ota-ona omillari va yolg'izlik o'rtasidagi bog'liqlik aniq o'lgan bo'lishi hamda natijalar taqrizdan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilgan bo'lishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Bog'lanish uslubi va yolg'izlik o'rtasidagi bog'liqlik

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishonchsiz bog'lanish turlariga ega (ayniqsa, xavotirli va qochuvchi) o'smirlar xavfsiz bog'langan tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori yolg'izlik darajasini namoyon etadi [8]. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, bolalik davridagi oilaviy munosabatlar tajribasi bog'lanish andozalarini shakllantiradi, bu andozalar esa kattalik davrida ham shaxsning emotsional farovonligiga, jumladan yolg'izlikka moyillikka ta'sir ko'rsatishda davom etadi.

Ota-ona bilan past sifatli bog'lanish nafaqat yolg'izlik, balki depressiya va boshqa ichki (internalizatsiyalashgan) psixologik muammolar bilan ham bog'liqligi aniqlangan [9]. Ayni paytda tengdoshlar bilan xavfsiz bog'lanish ota-ona bilan bog'lanish sifatining yetishmasligini to'liq qoplay olmasligi ta'kidlanadi - bu ota-ona bilan munosabatning o'ziga xos, almashtirib bo'lmaydigan ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

2. Ota-ona nazorati, emotsional qo'llab-quvvatlash va yolg'izlik

Braziliyada o'tkazilgan keng ko'lamli maktab tadqiqoti ota-ona nazorati va qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'smirlarda yolg'izlik va uyqu bilan bog'liq muammolar darajasining oshishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi^[10]. Bu natija oilaviy nazoratning past darajasi o'smirni ijtimoiy jihatdan himoyasiz holatga qo'yishi mumkinligini tasdiqlaydi.



Boshqa tadqiqotda ota-onaning javob berish qobiliyati (responsiveness) yuqori bo'lgan o'smirlarning emotsiyalarini kamroq bostirishi va yolg'izlikni kamroq his qilishi aniqlangan bo'lib, bu ota-ona javobgarligining emotsional tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini ko'rsatadi.

3. Qattiqqo'l tarbiya va jazolash uslubining ta'siri

Xitoyda o'tkazilgan tadqiqotda ota-ona tomonidan jazolash (ayniqsa jismoniy va psixologik jazo) o'smirlarda yolg'izlik darajasini bevosita ham, umumiy "o'z-o'zini idrok etish" (self-concept) ko'rsatkichi orqali bilvosita ham oshirishi isbotlangan^[10]. Shu bilan birga, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining sifati bu ta'sirni yumshatuvchi omil sifatida namoyon bo'lgan - bu maktab muhitining kompensatsion rolini ko'rsatadi.

O'smirlar bilan olib borilgan sifat tadqiqotida yosh qizlar oiladagi nizolar va ota-ona tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslikni o'z qadr-qimmatiga shubha bilan qarash sabablaridan biri sifatida tilga oladi, bu esa yolg'izlik tuyg'usini kuchaytiradi^[11].

4. Genetik-muhit y o'zaro ta'sir va jins farqlari

Belgiyalik tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan uzunlamasına (longitudinal) tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-ona qo'llab-quvvatlashi past bo'lgan holatlarda yolg'izlik darajasi yuqori bo'lib, bundan tashqari vaqt o'tishi bilan qizlarda yolg'izlik darajasi oshib borish tendensiyasi, o'g'il bolalarda esa aksincha pasayish tendensiyasi kuzatilgan^[12]. Bu natija o'smir qizlarning oilaviy omillarga nisbatan alohida sezuvchanligini va ularda yolg'izlik dinamikasining o'ziga xosligini ko'rsatadi, bu esa mazkur mavzuning aynan qiz bolalar nuqtai nazaridan alohida o'rganilishi zarurligini asoslaydi.

Bundan tashqari, ota-ona-bola munosabatlarining o'rta bolalik davridagi uzunlamasına dinamikasini o'rgangan tadqiqot ota bilan yaqinlik darajasining pasayishi bolada yolg'izlik darajasining oshishini bashorat qilishini aniqladi, bu ayniqsa qiz bolalar uchun sezilarli bo'lgan^[13].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, oilaviy muhitning o'smir qizlar yolg'izligiga ta'siri quyidagi psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi, deb xulosa qilish mumkin.

Birinchidan, ichki ishchi model mexanizmi - bolalikda shakllangan bog'lanish tajribasi o'zi va boshqalar haqidagi kognitiv-emotsional sxemalarga aylanib, o'smir qizning kelgusi barcha munosabatlarini, jumladan yaqinlik o'rnatish qobiliyatini belgilaydi^[14].

Ikkinchidan, o'z-o'zini baholash mexanizmi orqali ta'sir - ota-ona tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik va tanqid o'smir qizda o'z qadr-qimmatiga shubhani kuchaytiradi, past o'z-o'zini baholash esa boshqalar bilan yaqin munosabat o'rnatishga to'sqinlik qiluvchi ichki to'siqqa aylanadi.

Uchinchidan, emotsional tartibga solish ko'nikmalarining shakllanishi mexanizmi - ota-onaning javobgarligi va emotsional iliqligi bola uchun emotsiyalarni tan olish va tartibga solish namunasi vazifasini bajaradi; bunday namunaning yetishmasligi o'smirni emotsiyalarni bostirishga yoki izolyatsiyaga moyil qiladi.

To'rtinchidan, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish mexanizmi - oilada modelashtirilgan muloqot uslubi o'smir qizning tengdoshlar bilan munosabat o'rnatish ko'nikmalariga proyeksiya qilinadi; nizoli yoki distansiyalashgan oilaviy muhitda o'sgan qizlar tengdoshlar bilan ham yaqin munosabat o'rnatishda qiyinchilik chekadi.

Beshinchidan, kompensatsion himoya mexanizmi - o'qituvchi-o'quvchi munosabati va tengdoshlar bilan bog'lanish sifati ota-ona omilining salbiy ta'sirini qisman yumshatishi mumkin, biroq bu ta'sirni to'liq bartaraf eta olmaydi, chunki ota-ona bilan munosabat o'ziga xos, boshqa munosabat turlari bilan to'liq almashtirib bo'lmaydigan ahamiyatga ega.

Umumiy psixologiya nuqtai nazaridan, tarbiya jarayonida jazo o'rniga tushuntirish va muloqotga asoslangan uslublarning qo'llanilishi shaxsning o'z-o'zini nazorat qilish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini samaraliroq shakllantirishi ta'kidlanadi^[15].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'smir qizlarning jinsiy-yosh xususiyatlari - yuqori emotsional sezuvchanlik, ijtimoiy baholanishga nisbatan sezgirlik va shaxslararo munosabatlarga yo'naltirilganlik kuchliligi - ularni oilaviy omillar ta'siriga o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq moyil qiladi. Shu sababli oilaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlar, xususan ota-ona bilan ochiq muloqotni rag'batlantirish, ota-onaning emotsional javobgarligini oshirish va tarbiyada jazolash o'rniga tushuntirish uslubidan foydalanish, o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining oldini olish va uning psixotravmatik oqibatlarini bartaraf etishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida shuni ta'kidlash kerakki, tahlil qilingan manbalarning aksariyati kesim (cross-sectional) dizaynga ega bo'lib, sabab-oqibat bog'liqligini to'liq aniqlash imkonini bermaydi; shuningdek, o'zbek oilaviy-madaniy kontekstiga xos empirik tadqiqotlar hozircha yetarli emas, bu kelgusi tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy-analitik tahlil oilaviy muhit va ota-ona munosabatlarining o'smir qizlar yolg'izligi shakllanishida markaziy rol o'ynashini ko'rsatdi. Xavfsiz bog'lanish, yuqori emotsional javobgarlik va muvozanatli nazorat yolg'izlikning oldini oluvchi himoya omillari sifatida, ishonchsiz bog'lanish, jazolovchi tarbiya uslubi va oilaviy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi esa yolg'izlik va uning psixotravmatik oqibatlari xavfini oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Amaliy jihatdan, oila bilan ishlash - ota-onalarga bolaning emotsional ehtiyojlarini tushunish, ochiq muloqot o'rnatish va jazolashsiz, tushuntirishga asoslangan tarbiya uslublarini qo'llash bo'yicha psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish - o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining psixotravmatik oqibatlarini bartaraf etishning eng samarali va uzoq muddatli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda o'zbek oilaviy-madaniy sharoitiga moslashtirilgan empirik so'rovlar o'tkazish, shuningdek oilaviy omillar asosida korreksion-profilaktik dasturlar ishlab chiqish va ularning samaradorligini sinovdan o'tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. - М.: Прогресс, 1996. - 344 с.
2. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития. - М.: Академия, 2007. - 640 с.
3. Mahon N.E., Yarcheski A., Yarcheski T.J., Cannella B.L., Hanks M.M. A meta-analytic study of predictors for loneliness during adolescence // *Nursing Research*. - 2006. - Vol. 55. - P. 308–315.
4. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. - New York: Basic Books, 1969. - 401 p.
5. Ainsworth M.D.S., Blehar M.C., Waters E., Wall S. Patterns of Attachment: A Psychological Study of the Strange Situation. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1978. - 391 p.
6. Weiss R.S. Loneliness: The Experience of Emotional and Social Isolation. - Cambridge, MA: MIT Press, 1973. - 236 p.
7. Loneliness in adolescence: prevalence, developmental contexts, and interventions // *Frontiers in Psychiatry*. - 2025. - Vol. 16. - Art. 1696981.
8. Goossens L., Marcoen A., van Hees S., van de Woestijne O. Attachment style and loneliness in adolescence // *European Journal of Developmental Psychology*. - 1998. - Vol. 8. - P. 529–542.
9. Machado A.K.F., Wendt A., Ricardo L.I.C. Are parental monitoring and support related with loneliness and problems to sleep in adolescents? Results from the Brazilian School-based Health Survey // *Journal of Affective Disorders*. - 2021. - Vol. 278. - P. 189–194.
10. Luo Y., Wu A., Zhang H. Parental Punishment and Adolescents' Loneliness: A Moderated Mediation Model of General Self-Concept and Teacher–Student Relationships // *Frontiers in Psychology*. - 2021. - Vol. 12. - Art. 693222.
11. Verity L., Yang K., Nowland R., Shankar A., Turnbull M., Qualter P. Loneliness From the Adolescent Perspective: A Qualitative Analysis of Conversations About Loneliness Between Adolescents and Childline Counselors // *Journal of Adolescent Research*. - 2024.
12. Spithoven A.W.M., Bijttebier P., Van Den Noortgate W., Colpin H., Verschueren K., Van Leeuwen K., Claes S., Goossens L. Adolescent Loneliness and the Interaction between the Serotonin Transporter Gene (5-HTTLPR) and Parental Support: A Replication Study // *PLoS ONE*. - 2015. - Vol. 10, No. 7. - Art. e0133430.
13. Yan J., Han Z.R., Tang Y., Zhang X. Longitudinal Associations Between Parent–Child Relationships in Middle Childhood and Child-Perceived Loneliness // *Journal of Family Psychology*. - 2018. - Vol. 32, No. 8. - P. 1010–1020.
14. Bretherton I., Munholland K.A. Internal working models in attachment relationships: A construct revisited // *Handbook of Attachment: Theory, Research, and Clinical Applications* / Eds. J. Cassidy, P.R. Shaver. - New York: Guilford Press, 1999. - P. 89–111.
15. Каримова В.М. Психология. - Тошкент: Фан, 2018. - 358 б.
16. Qarshiboyeva G., Baratov N., Baratullayevna D. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масалалари // *Журнал педагогики и психологии в современном образовании*. - 2022. - Т. 2, № 5.
17. Баратуллаева Д. Ayollarda stress kechishi // *Журнал педагогики и психологии в современном образовании*. - 2024. - Т. 4, № 2. - Б. 48–52.
18. Баратуллаева Д., Ortiqova K. Yolg'izlik ta'sirida hayotimizda ro'y beradigan o'zgarishlar // *Журнал педагогики и психологии в современном образовании*. - 2024. - Т. 4, № 2. - Б. 144–148.
19. Баратуллаева Д., Ergasheva D. Talabalarda uchraydigan stressli holatlar va ularni bartaraf etish omillari // *Журнал педагогики и психологии в современном образовании*. - 2024. - Т. 4, № 3. - Б. 3–8.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.